

YUK VAGONLARIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA, TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH SHAXOBCHALARIDA VA TA'MIRLASH KORXONALARIDA ISHLOVCHI ISHCHI XODIMLAR BILIM SALOHIYATINI OSHIRISH

Nurbayev Bobomurod Safar o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Jaxon standartlari va rivojlangan iqtisodiyot talabini oshirish maqsadida kun sayin rivjlanib borayotgan sohalar qatorida temir yo'l transportida ham kuzatilayotgan ko'plab o'zgarishlarga ongli javob qaytarish maqsadida shu sohada faoliyat olib borayotgan ishchi xodimlarning bilim salohiyatini zamon talabi darajasida oshirib borish muhim sanaladi. Mazkur maqolada keltirilgan masala yuzasidan bir qator yechimlar, takliflar hamda xulosalar keltirilgan.

Annotatsion. In order to meet the demands of global standards and developed economies, it is important to increase the knowledge potential of employees working in this field in order to respond consciously to the many changes observed in railway transport, among other industries that are developing day by day. This article presents a number of solutions, proposals and conclusions on the issue raised.

Kalit so'zlar. Innovatsion vagon, vagon konstruksiyasi, depoli ta'mir, mukammal ta'mir, eksplotatsiya, shaxobcha, vagon ko'ruvchi, chilangar, darslik, o'quv qo'llanma.


Keywords. Innovative wagon, wagon construction, depo repair, overhaul, operation, depo, wagon inspector, locksmith, textbook, training manual.

Kirish. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida foydalanishda bo'lgan temir yo'l transporti yuk vagonlarining zamonaviy konstruksiyalar asosida yangicha modellari ishlab chiqilmoqda. 1524mm koleyaga ega mamlakatlar temir yo'l transportida foydalanishda bo'lgan yuk vagonlar modellarigi konstruksiyon xususiyatiga binoan har bir o'qqa tushadigan yuklama 23.5 ts qilib belgilangan. Mazkur yuklama bilan foydalanish rivojlangan mamlakatlar tovar tronsporti bo'yicha qoniqishini to'liq oqlamayotganligi sabali yangicha innovatsion vagon ishlab chiqarishga bo'lgan talab kun sayin kuchaymoqda. Unga ko'ra bu vagonlarning yuk ko'tarish qobilyati va vagon tarasi oshirilgan hamda har bir o'qqa tushadigan og'irlik 25 ts qilib mo'ljallangan telejkalar loyihalashtirilgan. Texnik jihatdan tezligi o'zgarish bo'lmasada, yuk ortishi xisobiga oddiy vagonlardan birmuncha afzalroq hisoblanadi. Bunday vagonlar sirasiga yog'och tashish platformalari model 13-6895, yopiq vagon model 11-6874, teploizolyatsiyali sistema model 15-6900, mineral o'g'it tashuvchi xopper vagon model 19-9835-01, neft maxsulotlarini tashuvchi olti o'qli sistema model 15-629, yog'och qirindilarini tashish uchun mo'ljallangan yarim ochiq vagon model 12-6995, suyiltirilgan gaz maxsulotlarini tashishga mo'ljallangan sistema model 15-6880/ 15-6880-01 kabi yuk vagonlari foydalanilmoqda. Bu vagonlariga qo'llaniladigan yurish qismi modellari 18-9855, 18-9891, 18-194-1, 18-9837, 18-1711, 18-7033, 18-9817 kabi qator telejkalardan

foydalanilmoqda. Bu shuni anglatadi-ki MDX mamalatlari miqyosida har yilgi o'tkaziladigan vagon xo'jaligi komissiyasi yig'ilishlarida bir qancha yangicha masalalar muhokamasi olib borilishi kerak va shunday bo'lib kelmoqda. O'z navbatida ko'rilgan masalalarning ijobiy yechimi topilgach uni ishlab chiqarish va foydalanish yo'riqnomalariga yangilanish sifatida qabul qilinadi. Ishchi-xodimlarning bilim saviyasi ushbu o'zgarishlarga munosib javob qaytara oladigan darajada yetarli bo'lishi, malakali ishchilar orqali vagonlarga texnik xizmat ko'rsatilishi va ta'mir sifatiga mos ta'mirlanishi zarur. Harakat xavfsizligini ta'minlashimiz uchun talab darajasida munosib mexnat faoliyatini yo'lga qo'yishga majburmiz.

Vagon xo'jaligi sohasida, oliygozlarda malakali va yetuk kadrlarni tayyorlashimiz, ularga yetarlicha bilim berishimiz, kelgusi ish faoliyati davomida ish beruvchi tomonidan muntazam ravishda amaliy hamda nazariy mashg'ulotlar tashkil qilinishini ta'minlashimiz zarur va bu bugungi kunda mavjud. Ammo masalaning o'g'riqli nuqtasini olib qaraydigan bo'lsak ko'pchilik o'quv qollanmalarimiz, foydalaniladigan adabiyotlarimiz eski. Bunday adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar yordamida biz boshlang'ich tushunchani be'malol egallashimiz mumkin, lekin bugungi kun talabi darajasida yetuk bo'la olmaymiz.

Yuqoridagi masalani ijobiy hal qilishimiz uchun biz birinchi navbatda ishlab chiqarish bilan be'vosita bog'liq holda faoliyat olib borishimiz zarur. Bunga quyidagi sxema orqali izoh beriladi.



O'zbekiston temir yo'llari AJ da mavjud mintaqaviy uzellar miqyosida Qo'ng'iro't mintaqaviy temir yo'l uzulida jami 6 nafar, Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzulida 9 nafar, Qarshi mintaqaviy temir yo'l uzulida 6 nafar, Termez mintaqaviy temir yo'l uzulida 4 nafar, Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzulida 6 nafar, Qo'qon mintaqaviy temir yo'l

uzelida 6 nafar murabbiylar faoliyat olib bormoqda. Ular har yili bir yilga mo'ljallangan va ta'mirlash korxonalari rahbarlari tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq tarzda ishchi-xodimlar bilan o'quv amaliy mashg'ulot olib borishadi. Olib boriladigan o'quv amaliyot rejasi yil moboynda olib boriladigan qilib oldindan rejalashtirilib tasdiqlanadi. Murabbiylar tomonidan puxta tayyorgarlik ko'rilgan holda mashg'ulotlar o'z vaqtida olib boriladi.

Yuqoridagi faoliyatlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, oliy va o'rta ta'lim muassasalari bilan birgalikda zamonaviy adabiyotlardan foydalanib, murabbiylar tomonidan sifatli mashg'ulotlar olib borilishi bu poezdlarning xavfsizligiga ulkan hissa qo'shadi. Yana shuni inobatga olishimiz lozim-ki, ishlab chiqarish bilan ilmiy amaliyot bir biriga mos kelishi zarur. Ya'ni oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'quv adabiyotlari aksar holda eski metodik qollanmalar ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Bu adabiyotlar umumiy ma'lumotlar olish uchun asqotishi shubxasiz, biroq ishlab chiqarish va foydalanishda ko'plab o'zgarishlar bo'lganda adabiyotlarning mosligini nazoratsiz qoldirishimiz noo'rindir. Shuning uchun foydalanishga qulay, oddiy so'z bilan bitilgan, tushunishga oson bo'lgan eng yangi manbalar asosida qo'llanmalar yaratishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent vagon deposi xodimlar bo'limi ma'lumotnomasi.
2. Vagon ko'ruvchilari uchun yo'riqnoma IIKB IJB 808 2022r.
3. Yuk vagonlarining telejkalarini ta'mirlash yo'riqnoma PD 32 IJB 052-2009 (32 IJB 38-2020 o'zgarishi bilan).